



O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI SOG‘LIQNI SAQLASH VAZIRLIGI
TOSHKENT PEDIATRIYA TIBBIYOT INSTITUTI
BUYRUQ

Toshkent shahri

«11» 10 2023 yil, № 436

O‘zbekiston yoshlar ittifoqining Toshkent pediatriya tibbiyot institutidagi boshlang‘ich tashkiloti Yoshlar yetakchisi, yo‘nalishlar, fakultetlar koordinatorligi lavozimlariga tayinlash to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 5-iyuldagi “Yoshlarga oid davlat siyosati samaradorligini oshirish va O‘zbekiston yoshlar ittifoqining faoliyatini qo‘llab-quvvatlash to‘g‘risida”gi PF-5106-son Farmoni, 2017-yil 18-iyuldagi “O‘zbekiston yoshlar ittifoqi faoliyatini takomillashtirishga doir kompleks chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-3138-son Qarori, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasining 2023-yil 7-fevraldagi 02-PA 1/1-254-son topshirig‘i, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 26-avgustdagi 517-son Qarori, 2020-yil 31-yanvardagi 59-son Qarori, O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta‘lim, fan va innovatsiyalar vazirligi va O‘zbekiston yoshlar ittifoqi Markaziy Kengashining 2023-yil 29-martdagi “O‘zbekiston yoshlar ittifoqining oliy ta‘lim muassasalaridagi boshlang‘ich tashkilotlari faoliyatini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarori, O‘zbekiston yoshlar ittifoqining oliy ta‘lim muassasalaridagi boshlang‘ich tashkilotlari Yoshlar yetakchisi, yo‘nalishlar, fakultetlar koordinatorligi uchun nomzodlarni tanlov asosida saralovchi Toshkent shahar hududiy tanlov komissiyasi yig‘ilishining 2023-yil 11-sentabrdagi 02-06-B/11-son bayoni, O‘zbekiston yoshlar ittifoqi Toshkent shahar hududiy Kengashining 2023-yil 13-sentabrdagi 02-06/IN07218514-son xati, Toshkent pediatriya tibbiyot instituti Kengashining 2023-yil 7-oktabrdagi 3-son bayonida belgilangan vazifalar ijrosini ta‘minlash hamda 2023-yilda yoshlarning bandligini ta‘minlash, talaba-yoshlar bilan ishlash samaradorligini oshirish va ularning bo‘sh vaqtini mazmunli tashkil etish, talaba-yoshlarni mana‘naviy-axloqiy va jismoniy barkamol etib tarbiyalash, ularning ma‘naviy-mafkuraviy dunyoqarashini mustahkamlash, huquq va manfaatlarini himoya qilish, ijtimoiy faolligini oshirish maqsadida

BUYURAMAN :

1. O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta‘lim, fan va innovatsiyalar vazirligi va O‘zbekiston yoshlar ittifoqi Markaziy Kengashining 2023-yil 29-martdagi “O‘zbekiston yoshlar ittifoqining oliy ta‘lim muassasalaridagi boshlang‘ich tashkilotlari faoliyatini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarori hamda O‘zbekiston yoshlar ittifoqining oliy ta‘lim muassasalaridagi boshlang‘ich tashkilotlari Yoshlar yetakchisi, yo‘nalishlar, fakultetlar

koordinatori uchun nomzodlarni tanlov asosida saralovchi Toshkent shahar hududiy tanlov komissiyasi yig'ilishining 2023-yil 11-sentabrdagi 02-06-B/11-son bayoni rahbarlik va ijro uchun qabul qilinsin.

2. O'zbekiston yoshlar ittifoqining oliy ta'lim muassasalaridagi boshlang'ich tashkilotlari Yoshlar yetakchisi, yo'nalishlar, fakultetlar koordinatori uchun nomzodlarni tanlov asosida saralovchi Toshkent shahar hududiy tanlov komissiyasi yig'ilishining 2023-yil 11-sentabrdagi 02-06-B/11-son bayoni hamda O'zbekiston yoshlar ittifoqining Toshkent pediatriya tibbiyot institutidagi boshlang'ich tashkiloti hisobot-saylov yig'ilishining 2023-yil 3-oktabrdagi 01-son bayoniga asosan:

Toshkent pediatriya tibbiyot instituti rektorining yoshlar masalalari bo'yicha maslahatchisi - O'zbekiston yoshlar ittifoqining institutdagi boshlang'ich tashkilot yoshlar yetakchiligiga Abidov Xasanxodja Alisherovich nomzodi,

O'zbekiston yoshlar ittifoqining Toshkent pediatriya tibbiyot institutidagi boshlang'ich tashkiloti Yoshlar Kengashi a'zolari – yoshlar yetakchisi, yo'nalishlar va fakultetlar koordinatori maqullangan nomzodlar tarkibi 1-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

3. Yoshlar masalalari va ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha birinchi prorektor (M.A.Axmedova), rektorining ijtimoiy-ma'naviy muhit barqarorligini ta'minlash bo'yicha maslahatchisi (D.M.Ilxomov), rektorining yoshlar masalalari bo'yicha maslahatchisi - O'zbekiston yoshlar ittifoqining institutdagi boshlang'ich tashkilot yoshlar yetakchisi (X.A.Abidov)larga:

O'zbekiston yoshlar ittifoqining Toshkent pediatriya tibbiyot institutidagi boshlang'ich tashkiloti tomonidan turli loyihalar, ko'ngilochar tadbirlar, sport musobaqalarni tashkil etishda zarur shart-sharoitlar yaratib berilsin.

institutdagi talaba-yoshlar, yosh pedagog xodimlar, ishchi xizmatchilarning huquq va manfaatlarini himoya qilish hamda qo'llab-quvvatlash maqsadida tuzilgan mavjud kollegial organlar, shu jumladan, kengashlar ishchi guruhlar komissiyalar tarkibiga O'zbekiston yoshlar ittifoqining Toshkent pediatriya tibbiyot institutidagi boshlang'ich tashkiloti yoshlar yetakchisi, Yoshlar Kengashi a'zolari (yo'nalish hamda fakultetlar koordinatori) doimiy a'zo sifatida kiritilsin.

O'zbekiston yoshlar ittifoqining Toshkent pediatriya tibbiyot institutidagi boshlang'ich tashkiloti faoliyatini qo'llab-quvvatlash, faoliyatda yuzaga kelayotgan muammo va kamchiliklarni o'z vaqtida operativ hal qilish, faol yoshlarni rag'batlantirib borish maqsadida har oyda kamida bir marotaba tanqidiy-tahliliy yig'ilishlar o'tkazib borilsin.

4. Yoshlar masalalari va ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha birinchi prorektor (M.A.Axmedova), rektorining ijtimoiy-ma'naviy muhit barqarorligini ta'minlash bo'yicha maslahatchisi (D.M.Ilxomov), Bosh hisobchi (X.M.Mardanov), Reja-moliya bo'limi boshlig'i (B.K.Norqulov)larga:

Yoshlar yetakchisi bo'lgan muassasaning professor-o'qituvchisi va boshqa toifadagi xodimiga Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 26-avgustdagi 517-son qarori bilan tasdiqlangan nizomning 17¹-bandiga yohud bakalavr va magistratura bosqichidagi talabalarga Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 31-yanvardagi 59-son qarori bilan tasdiqlangan nizomning 20¹-bandiga muvofiq rektorning yoshlar masalalari bo'yicha maslahatchisi – Yoshlar yetakchisiga har oylik qo'shimcha haq to'lab borish;

Yoshlar Kengashi a'zolari - yo'nalishlar va fakultetlar koordinatori Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi va O'zbekiston yoshlar ittifoqi Markaziy Kengashining 2023-yil 29-martdagi Qarori muvofiq ularning ta'lim olish shakli va o'zlashtirish ko'rsatkichidan qat'iy nazar institutning byudjetdan tashqari mablag'lar hamda talabalarni rag'batlantirish jamg'armasi hisobidan ittifoqning institutdagi boshlang'ich tashkiloti Yoshlar yetakchisining tavsiyasiga asosan 2023-yilning oktabr oyidan boshlab har oyda bazaviy stipendiyaning uch

baravari miqdoriga teng bo'lgan tartibda qo'shimcha moddiy rag'batlantirish ishlari amalga oshirilsin.

O'zbekiston yoshlar ittifoqining Toshkent pediatriya tibbiyot institutidagi boshlang'ich tashkiloti yillik ish rejasida ko'zda tutilgan loyihalar va tadbirlarni tashkil etish va o'tkazish hamda g'oliblari, sovrindorlarini rag'batlantirish bilan bog'liq moliyaviy sarf-harajatlarni institutning budjetdan tashqari mablag'lari hamda talabalarni rag'batlantirish jamg'armasi hisobidan doimiy moliyalashtirib borilsin.

5. Mazkur buyruq ijrosini nazorat qilish vazifasi Yoshlar masalalari va ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha birinchi prorektor M.A.Axmedova hamda rektorining ijtimoiy-ma'naviy muhit barqarorligini ta'minlash bo'yicha maslahatchisi D.M.Ilxomov zimmlariga yuklatilsin.

Rektor



B.T. Daminov

Kiritildi:

Toshkent pediatriya tibbiyot instituti rektorining
yoshlar masalalari bo'yicha maslahatchisi -
O'zbekiston yoshlar ittifoqining institutdagi
boshlang'ich tashkilot yoshlar yetakchisi



X.A. Abidov

Kelishildi:

Yoshlar masalalari va ma'naviy-ma'rifiy
ishlar bo'yicha birinchi prorektor



M.A. Axmedova

Rektorining ijtimoiy-ma'naviy muhit
barqarorligini ta'minlash bo'yicha maslahatchisi



D.M. Ilxomov

Bosh hisobchi



X.M. Mardanov

Reja-moliya bo'limi boshlig'i



B.K. Norqulov

Yurist

S.V. Goryunova

Toshkent pediatriya tibbiyot institutining
2023-yil "18" 10 dagi
"436"-son buyrug'iga
1-ILOVA

**O'zbekiston yoshlar ittifoqining Toshkent pediatriya tibbiyot institutidagi boshlang'ich
tashkiloti Yoshlar Kengashi
TARKIBI**

T/r	F.I.Sh.	Tavsiya etilgan Yoshlar kengashidagi lavozimi
1.	Abidov Xasanxodja Alisherovich	Toshkent pediatriya tibbiyot instituti rektorining yoshlar masalalari bo'yicha maslahatchisi – Yoshlar yetakchisi
2.	Norqo'ziyeva Fotima Ne'matillo qizi	Intellectual loyihalar koordinatori lavozimi
3.	Sidiqjonova Muattar Farhodjon qizi	Besh tashabbus loyihalari koordinatori
4.	Matkarimov Bekmurod Bardimurotovich	Harbiy-vatanparvarlik loyihalari koordinatori
5.	Abdug'aniyev Fazliddin Muhiddin o'g'li	Tadbirkorlik va innovatsion loyihalari koordinatori
6.	Abdulaxatov Abror O'razali o'g'li	"Yoshlar daftari" va metsenatlik dasturlari koordinatori
7.	Nabiyeva Zuxraxon Ibrohim qizi	Talaba qizlar koordinatori
8.	Isomiddinov Alijon Olimjon o'g'li	1-Pediatriya va xalq tabobati fakulteti koordinatori
9.	Badriddinov Fazliddin Madamixon o'g'li	2-Pediatriya va tibbiy-biologiya fakulteti fakulteti koordinatori
10.	Bo'riboyeva Sangina Akromjon qizi	Tibbiy-pedagogika va davolash fakulteti koordinatori
11.	Pazilova Iroda Muzaffar qizi	Oliy malakali hamshira fakulteti koordinatori
12.	Xamdammov Javlon Baxtiyor o'g'li	Magistratura koordinatori